



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING ROLI

Sh. A. Anvarova

Upgrade LC o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim qismi ekanligi, maktab ta'lim tashkilotlarida uni amalga oshirish holatlari aytilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, atrof-muhit, dunyoqarash, badiiy tarbiya, estetik qobiliyat, pedagogik mahorat, go'zallikni his qilish

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo ta'lim tizimida bolalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish ham ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bolalarda estetik did, go'zallikni anglash va ijodiy qobiliyatini shakllantirishda badiiy adabiyot muhim vosita hisoblanadi. Zero, badiiy asarlar orqali bola nafaqat atrof-muhitni anglaydi, balki undagi go'zallik va ma'naviy qadriyatlarni his etishni o'rganadi. O'zbekiston ta'lim tizimida yosh avlodni har tomonlama barkamol va yetuk qilib tarbiyalash, ularni ma'naviy axloqi va estetik dunyoqarashini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu borada Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev PF-6108 farmonida aytganlaridek: "Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi hamda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilanadi"[1]. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishda bolalar adabiyotining o'rni beqiyosdir. Chunki aynan shu davrda bolalarda tasavvur, his-tuyg'u va ijodiy tafakkur faol



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

rivojlanadi. Shu bois, bolalar adabiyoti vositasida o‘quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda bolalarda estetik tuyg‘uni shakllantirish va rivojlantirishda badiiy adabiyotning rolini o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Journal of Literary Education” va “Children’s Literature in Education” kabi nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy asarlar orqali bolalarda nafaqat tolerantlik, balki tanqidiy fikrlash, empatiya va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish mumkin. O‘zbek tadqiqotchilaridan N.Hamroyevning ta’kidlashicha, badiiy adabiyot bolalarda milliy o‘zlikni anglash bilan bir qatorda, boshqa xalqlar madaniyatini hurmat qilish, ularning an’analarini o‘rganish orqali tolerantlik xususiyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi[2]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy adabiyot bolalarda tolerantlik xususiyatlarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida e‘tirof etiladi. Badiiy asarlar bolani boshqa madaniyatlar, qadriyatlar tizimi va hayot tarzi bilan tanishtiradi, turli qahramonlar hayoti va kechinmalarini his qilish orqali empatiya tuyg‘usini rivojlantiradi. Badiiy asarlar bolalarga turli millat, din va madaniyat vakillari haqida ma’lumot berish, ularning qadriyatlari, an’analari va turmush tarzini tushunish imkonini yaratish orqali bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va empatiya kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Bolada badiiylik va estetik tarbiyani rivojlantirish uchun uni tanqid qilish emas, aksincha, qo‘llab-quvvatlash kerak. Bu bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Bolalarni tolerantlik ruhida tarbiyalash jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim shartidir. Bag‘rikeng, o‘zaro hurmatga asoslangan shaxslarni tarbiyalash esa davlatimiz va jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda bolalarda badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ta'lim jarayonida san'at, ijod va estetik tarbiyaga yetarlicha e'tibor qaratish bolalarning ichki dunyosini boyitadi, ularni go'zallikni qadrlaydigan, yetuk shaxs etib tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
2. N.Hamrayeva "Pedagogika va metodika to'plamlari" Toshkent/ 2021
3. N.Hamrayeva "Pedagogika" Toshkent/2021
4. www.pedagog.uz
5. www.lib.uz
6. www.ziyonet.uz